



O'z gastronomik ehtiyojlari, dini yoki tibbiy sabablarga ko'ra yo'lovchi aviabiletni bron qilish yoki sotib olayotganda (36 soat ichida) maxsus taomni bepul buyurtma qilishi mumkin. Biz quyidagi maxsus taomlarning turlarini taklif qilamiz:

MOML - musulmon menyusi (cho'chqa go'shti, jelatin, spirtli ichimliklar tarkibdan chiqarilgan)

KSML - yahudiylar uchun kosher menyusi (pishirishda kosher qoidalariga rioya qilinadi, bu turdagi taomlar Isroildan keltiradi).

HNML - Hind novegetarian, hindu menyusi (qo'y, parranda go'shti, baliq, sutli - achchiq va baharatli taomlar, unda mol go'shti, cho'chqa go'shti mavjud emas).

FPML - mevali menyu (yangi uzilgan sarhil mevalar taklif rtiladi )

VGML – qat'iy vegetarian menyusi (hayvon go'shtlari, sut va tuxum ratsiondan chiqarilgan)



AVML - Osiyo/Hindiston vegetarian taomnomasi – (Sut mahsulotlaridan cheklangan foydalanish bilan lazizatli baharatli Osiyo/Hind taomlari. Menyulari tarkibida tuxum yo‘q).

RVML - xom vegetarian taomnomasi (menyu yangi meva va sabzavotlar, quritilgan mevalar, tabiiy sharbatlardan iborat).

VLML - standart vegetarian taomnomasi (tuxum va sut mahsulotlaridan taomlar, shirdonsiz pishloqlar).

GFML – tarkibida kleykovina mavjud bo‘lmagan menyu (proteinsiz, o‘simlik oqsillari mavjud bo‘lmagan, bug‘doy, javdar, arpa, suli, sut mahsulotlari menyulari tarkibidan chiqarilgan)

CHML - 2 yoshdan 12 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun (menyuda tez hazm bo‘luvchi mahsulotlari, yogurt, mevalar, kraker, pishloq va sharbat mavjud).